



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sharipova Gulruxsor Nurqabilovna¹

¹ Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Electron pochta: raxshona@list.ru
Tel: 93 5705558

TA'LIM SOHASIDA MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada OTM talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ta'lim jarayonini zamon talabalari darajasida tashkil etish, ta'lim jarayoniga innovatsion dasturlarni joriy etish, respublikamizdagi ta'lim sohasidagi barcha tizimlar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion dasturlar, slohotlar, insonparvarlashtirish, ta'lim tizimi, hamkorlik, kasbiy kompetensiya

Аннотация. В данной статье описаны педагогические условия формирования компетенции саморазвития студентов высших учебных заведений, организация учебного процесса на уровне современных требований, внедрение инновационных программ в учебный процесс, взаимодействие сотрудничества между всеми системами в области образования республики.

Ключевые слова: саморазвитие, педагогические условия, инновационные программы, реформы, гуманизация, система образования, сотрудничество, профессиональный компетентность

Annotation. This article describes the pedagogical conditions for the formation of the competence of self-development of students of higher educational institutions, the organization of the educational process at the level of modern requirements, the introduction of innovative programs in the educational process, the interaction of cooperation between all systems in the field of education of the republic.

Key words: self-development, pedagogical conditions, innovative programs, reforms, humanization, education system, cooperation, professional competence

Kirish (Introduction). Respublikamizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, barcha sohalarda jadal amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishning yangi modellarini izlash, ta'lim jarayonini zamon talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etish, ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion dasturlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini zamonaviylashtirish, ilmiy tadqiqot institutlari, xalqaro loyihalar, kollej, maktab, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshqalar bilan o'zaro manfaatli ijtimoiy hamkorlikni keng yo'lga qo'yish masalalarini ilgari surmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bo'lajak pedagoglarni kasbiy shakllantirishning nazariy masalalari, ijodiylik pedagogik ijodkorlikning o'ziga xos ko'rinishi ekanligi professor N.N.Azizxodjaevaning tadqiqotlarida xam ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olima bo'lajak pedagoglarda ijodiy funksiyani rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash, pedagogik voqelikni to'g'ri idrok qilish, kasbiy bilimdonlikni shakllantirish, pedagogik refleksiyaning qaror toptirish va shu asnoda pedagogik mahorat sirlarini egallashida yetakchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari ishlab chiqarish bilan birga, ta'lim sohasiga ham sezilarli o'zgarishlar, yangiliklar va o'qitishning zamonaviy vositalarini olib kirish imkonini berdi. Bu yutuqlarning ta'lim sohasiga kirib kelishi uning an'anaviy vazifalariga nisbatan ham sezilarli o'zgartirishlar kiritish zaruratini qo'ydi. Shu asnoda ta'limdagi islohotlar mohiyatini tushunish va anglab yetish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratish muammosi yuzaga keldi.

G.N.Ibragimovanning e'tirof etishicha, bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo'nalishlari - mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta'minlovchi qonuniyatlarni modernizatsiyalashtirishdan iborat etib belgilandi. Ushbu o'rinda, ta'lim oluvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik hamda fikrlash mezonlariga tayanuvchi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, kadrlar ta'minoti kabi jihatlarni keng ko'lamda aks ettiruvchi ta'lim muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldingi o'ringa olib chiqishni ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida "o'qituvchi va ta'lim oluvchi" munosabatlarini insonparvarlashtirish, erkinlashtirish va shaxsga yo'naltirish orqali o'quv jarayonini mustaqil tashkil etib, boshqaruvchi, har bir ta'lim oluvchi shaxsining ijodiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy pedagog shaxsiga bo'lgan talablarni vujudga keltirdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pedagoglar tayyorlashning hozirgi zamonaviy bosqichida Davlat ta'lim standartlari ilmiy-metodik tadqiqotlar uchun eng muhim o'quv-me'yoriy hujjat hisoblanadi. Ta'lim standartlari tahlili ko'rsatadiki, ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini zamon talablari darajasida shakllantirmasdan turib, ta'limda samarali natijalarga erishish mumkin emas. Shu sababli oxirgi paytlarda oliy ta'lim muassasalari talabalari va bitiruvchilarining kompetensiyalari darajasini baholashga e'tibor kuchaytirildi. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi darajasi)ni

o'rganib, biz ushbu uchlikdani tashqari yana o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish lozim. Chunki bo'lajak pedagogning o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi uning nimalarni bilishi bilan emas, balki nimalarni amalda bajara olishi bilan ham belgilanadi.

Qishloq va shahar maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlar tayyorlashga ijtimoiy buyurtma jamiyat va o'zaro manfaatli ijtimoiy munosabatlarining rivojlanganligi darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta'limni zamonaviylashtirishni talab etadi va ana shu holat talabalarda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantirishga an'anaviy yondashuvlarni o'zgartirish va kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash zaruriyatini belgilab beradi.

Biz o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etish, uning mazmuni va xususiyatlarini belgilovchi qator yondashuvlarni metodik va pedagogik shart-sharoitlar tushunchasi ta'rifiga asos qilib oldik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogik shart-sharoitlar aniq bir natijaga erishish maqsadida pedagog tomonidan u yoki bu darajada ongli ravishda loyihalangan pedagog jarayonning borishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi shart-sharoitdir. Bundan ko'rinadiki, individning psixikasini, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim klasteri sharoitida talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni oldindan loyihalash zarur.

N.Ippalitova, N.Sterxonovalarning fikricha, pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizim komponentlaridan biri bo'lib, ayni tizimning shaxs va protsessual aspektlariga ta'sir etuvchi, uning samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlovchi ta'limiy va moddiy–ijtimoiy muhit imkoniyatlari yig'indisini aks ettiradi. Ularning e'tirof etishicha, pedagogik shart-sharoitlar bu – ta'lim jarayonida yutuqlarga erishishni ta'minlovchi yoki aksincha unga erishishga to'sqinlik qiluvchi holatdir.

Y.R.Najmiddinovaning ta'kidlashicha, pedagogik shart-sharoitlar deganda, tashkiliy pedagogik (ayni pedagogik shart-sharoitlar ta'limiy masalalarni yechishni ta'minlovchi imkoniyatlar, qo'yilgan vazifani hal etishni ta'minlovchi obyektiv imkoniyatlar yig'indisi, pedagogik faoliyat maqsadiga erishishga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon mazmuni, shakli va metodlari imkoniyatlari majmuasi), psixologik-pedagogik (pedagogik jarayon subyektlari shaxsi yoki obyektlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan pedagogik tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi), didaktik shart-sharoitlar (didaktik maqsadlarga erishish uchun o'qitish mazmuni, shakli, metodini, shuningdek tashkiliy shakllarini maqsadga yo'naltirilgan holda tanlash) kabi yuqorida ta'kidlangan bir necha turlarga ajratish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Biz bo'lajak pedagoglarda amaliy o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini zamonaviy yondashuv asosida shakllantirishning eng maqbul pedagogik shart-sharoitlarlari sifatida: individual ishlab chiqarish ta'limini loyihalashda talabalar uchun emotsional komfortni va ijtimoiy himoyani ta'minlash hisobiga amalga oshiriladigan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish; tanlagan pedagoglik kasbiga ijobiy munosabatni shakllantirish hisobiga talabada o'quv motivatsiyasini oshirish; o'qituvchiga talabalarning o'quv-kasbiy faoliyatini loyihalashni amalga oshirishga imkon beruvchi barcha o'quv-tarbiya ishlarining amaliy yo'nalganligini ta'minlash; o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha qo'yilgan masalalarni birgalikda yechish va klaster sharoitida ta'lim muassasasalari bilan o'zaro foydali hamkorlikni nazarda tutuvchi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash hamda pedagogik loyihalashning resurs va metodik ta'minotini ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus ta'lim muhitini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Talabalarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishda faoliyati va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan texnologiyalar optimal hisoblanadi. Shuning uchun pedagogning talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni

amalga oshirish bo'yicha metodik faoliyati muhimdir. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim, chunki ularning birlarini to'ldirishi, bir-biriga mazmunan qo'shilishi imkoniyati talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida shakllantirish jarayonini ilmiylik, izchillik, tizimlilik, uzluksizlik tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu jarayonni yaxshilash uchun, bizning fikrimizcha, faoliyatga asoslangan, rivojlantiruvchi (muammoli-izlanish) pedagogik texnologiyalar katta ahamiyatga ega. O'qitish va tarbiyalashning faol metodlari o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Bizning nazarimizda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maqsadiga erishish uchun Davlat ta'lim standarti (DTS)da va pedagog-tadqiqotchi amaliyotchilar tomonidan tavsiya etilgan va kasbga qiziqish uyg'otadigan, zarur o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o'qitishning turli texnologiyalari va metodlariga e'tibor qaratish zarur.

Kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish maqsadida ta'lim jarayonida mashg'ulotlarni o'tkazishning faol va interfaol shakllari (rolli o'yinlar, aniq kasbiy vaziyatlarni tahlil etish, psixologik va boshqa treninglar, guruhviy munozaralar)dan ta'lim oluvchilarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlar bilan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, birinchi pedagogik shart-sharoitning dolzarbligi shundan iboratki, bo'lajak o'qituvchilarda ilk amaliy kasbiy bilim va ko'nikmalar shakllanadi, bunda faoliyatning asosiy turi o'quv-bilish, o'rganish, amaliy o'quv faoliyat jarayonlaridan iborat bo'lib, keyinchalik u amaliy mustaqil o'quv faoliyatiga aylanadi. Shu bois ta'lim muassasalarining ish faoliyati samaradorligini oshirishning eng asosiy vositasi, birinchi navbatda, pedagogik tizimlarning ilmiy-metodik, moddiy-texnik, ijtimoiy-madaniy ta'minotining kompleks tizimini yaratish, ikkinchidan, yuqori malakali o'qituvchilarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit - o'zini o'zi rivojlantirishga ijobiy munosabatni shakllantirish hisobiga talabada o'quv motivatsiyasini oshirish bevosita

gnostik, amaliy va ijokorlikka yo‘nalganlik kompetentsiyalarini, mustaqil o‘quv faoliyatiga qadriyatini munosabatlarni shakllantiradi. “Motiv” tushunchasi lotincha “move” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, harakatlantiraman degan ma‘noni bildiradi. Motivatsiya shaxs faolligini, uning hulq-atvori va faoliyati muvofiqligini yetaklovchi omil hisoblanadi.

Uchinchi pedagogik shart-sharoit - o‘qituvchiga ta‘lim oluvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyatini modellashtirish va joriy etish imkonini beradi. Bo‘lajak pedagoglarida amaliy o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyalarini shakllantirishning zaruriy sharti hisoblanadi va u pedagogik loyihalashning barcha bosqichlarida joriy etilishi maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

To‘rtinchi pedagogik shart-sharoit - oliy ta‘lim muassasasining pedagogik ta‘lim klasteri subyektlari: maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, akademik litsey(kollej)lar, ilmiy tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligi orqali ta‘minlanadi. O‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar muvaffaqiyati qator omillar bilan uzviy bog‘liq.

Beshinchi pedagogik shart-sharoit - o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonini pedagogik loyihalashning resurs va metodik ta‘minotini ta‘minlashga tayaniladi. Axborot resurslari (internet resurslari elektron pochta, elektron konferentsiya, zamonaviy kutubxona, davriy nashrlar), kadrlar resursi (malakali o‘qituvchilar, uslubchilar, innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlaydigan rahbarlar)siz va o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonini pedagogik loyihalashda qo‘yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan metodik ta‘minotni yaratmasdan turib, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyalarini shakllantirishda samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, ta‘lim jarayonida talabalarning o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda pedagogik shart sharoitlarning yaratilishi, kelgusida turli ta‘lim muassasalarida uzluksiz ta‘lim jarayonini ta‘minlab beradigan, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan pedagog kadrlar yetishtirib berishga xizmat qiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Qarori
4. Porter M. International Competition: Competitive Advantages of Countries. - M.: International Relations, 1993.
5. Mukhamedov G. I., Khozhamgulov U. N. Innovative cluster of pedagogical education: definition, description, classification (scientific brochure). –P. 90. Chirchik, 2019.
6. Mukhamedov G.I., Usarov Dj.E. "Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources." International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ', Volume-9 Issue-3, January 2020, Page 2677-2684. <https://www.ijitee.org/download/volume-9-issue-3/>
7. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.
8. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna, "DEFECTS IN SCIENTIFIC RESEARCH OF THE PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL CRISIS AND ITS SOLUTION", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.



9. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich, “PROBLEMS OF FORMATION OF LEARNING MOTIVES IN PUPILS”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.

10. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.

11. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.